

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti tashkil etildi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universitetini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Unga ko'ra:

- Termiz muhandislik-texnologiya instituti hamda Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish institutini qo'shib yuborish orqali ularning negizida Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti (keyingi o'rinnarda - Universitet) tashkil etildi;
- Universitetda muhandislik, qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida hamda hududning oliv ma'lumotli kadrlarga bo'lgan ehtiyojiga muvofiq oliv ma'lumotli mutaxassislar va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorланади;
- Universitetda 2024/2025-o'quv yilidan boshlab IIg'or muhandislik maktabi faoliyati tashkil etiladi;
- yirik ishlab chiqarish korxonalari Universitetning IIg'or muhandislik matabiga sanoat hamkor sifatida biriktiriladi;
- Termiz muhandislik-texnologiya instituti hamda Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish institutida tahsil olayotgan barcha talabalar o'qishini Universitetda davom ettiradi hamda 2024/2025-o'quv yilidan boshlab bitiruvchi kurs talabalariga belgilangan tartibda Universitet diplomi beriladi;
- Universitet Termiz muhandislik-texnologiya instituti hamda Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish institutining huquq va majburiyatları bo'yicha huquqiy vorisi hisoblanadi.

Qarorning to'liq matni: https://aza.uz/uz/posts/termiz-davlat-muhandislik-va-agrotexnologiyalar-universitetini-tashkil-etish-chora-tadbirlari-toqrisida_617705